

Sekiz jiltlik Şekspir / hekaýa

Category: Hekaýalar, Kitapcy

написано kitapcy | 23 января, 2025

Sekiz jiltlik Şekspir / hekaýa SAKKIZ JILDLIK SHEKSPIR

Xaridor kitoblarni birma-bir qo'liga olib, atroflicha ko'zdan kechirdi. Ularni erinmay varaqlab ko'rib, ichidagi har bir sahifasi bus-butunligiga ishonch hosil qilgach, ehtiyot shart muqovasining orqa tomonini ham e'tibordan qochirmadi.

– Yaxshi saqlangan ekan,- dedi shundan so'ng qarshisida o'tirgan bukinistga ma'qul degandek bosh irg'ab.

Bukinist oltmish yoshlardagi, soch-soqoli oqargan, burni uzunchoq, lablari do'rdoq, yuzi quruq kishi bo'lib, boyadan beri uning qarshisida imtihon topshirayotgan talabaga o'xshab jonsarak va bezovta o'tirardi. Xaridorning bu gaplari unga yashin tezligida ta'sir ko'rsatib, moydek yoqib tushdi va yuziga qon yugurdi-da, ilkis jonlandi.

– Albatta, albatta,- dedi tili kalimaga kelib.- Uni ishonchli qo'llardan olganman, axir! Ularni menga sotgan ayol shaxsiy kutubxonasida uzoq yillar ko'z qorachig'idek asrab-avaylab saqlagan.

Xaridor undan ancha yosh va ozg'inroq, o'ziga ishonchi kuchli va cho'rtkesar, po'rim va did bilan kiyingan bo'lib, chap bilagidagi antiqa ko'rinishdagi yapaloq soat, qizil hoshiyali bo'yinbog'iga qistirilgan kumush to'g'nog'ich, yap-yangi kostyumidan gupillab kelayotgan qimmatbaho atir ifori va ko'zoynagining zarhal gardishidan yuqori qatlamga mansubligi, boz ustiga noodatiy ziyoli kishi ekanligi sezilib turardi.

– Shekspirning bu sakkiz jidlik asarlar to'plamini izlamagan joyim qolmadi,- dedi u kitoblarga o'zgacha mehr bilan qarab, yengil “uh” tortib qo'yarkan.- Shaxsiy kutubxonamda jahon mumtoz adabiyoti vakillaridan birgina Shekspir yo'q edi. Qolganlar bor: Montendan tortib Remarkkacha. Navoiydan tortib Oybekkacha... Shunga uni har yerdan izlardim. O'ziyam yillab

izladim. Tanish-bilishlardan, kitob do'konlaridan, bukinistlardan. Hatto, Moskvadagi taniqli bukinistik markazlarigacha qo'ng'iroq qildim. Ba'zida topilgan vaqtlari ham bo'ldi. Faqat ular yo to'liq emas, yo holati ko'nglimdagidek chiqmadi. Shu-shu ichimda kemptiklik bilan yashadim. Vaqti soati bugun ekan. Mana topildi. Topilganda ham o'zimizning Farg'onadan topildi. Xudoga shukr! Sizga esa alohida tashakkur!

Bukinist "qo'ysangiz-chi" degandek yelkasini qisib, bir kitoblarga, bir xaridorga zimdan qarab qo'ydi. Keyin oldidagi finjonda turgan qora choydan bir-ikki xo'pladi. Xaridor kitoblarni ko'zdan kechirib bo'lgach, xuddi u kabi oldidagi finjondan choy icha boshladi. Ular o'tirgan shinamgina kafe bu nomdan ko'ra kichikroq tamaddixona nomiga mos tushar, xo'randalar kam, asosan yoshi kattalar kirib-chiqib yurishardi.

– Balki siz tamaddi qilarsiz,- dedi xaridor bukinistga orada xayrihohlik bilan.- Meni bu yerda ancha kutib qoldingiz. Baxtga qarshi operatsiyam cho'zilib, vaqtida kela olmadim.

– Boshqa safar,- dedi bukinist tavoze bilan rad etarkan.- Do'konga nabiramni qo'yib kelgandim. Siz qo'ng'iroq qilganingizda xaridorlar ko'p edi. Hozir ham kamaymagandir.

– Kitoblar narxini bir oz tushirmaysizmi?- davom etdi xaridor bir pas kafe derazalaridan ko'chani tomosha qilib.

Bukinist kalovlanib, bir muddat nima qilishini bilmay qoldi. Qo'llarini bir-biriga ishqalab, besaranjom o'yga toldi. Ammo darrov o'zini qo'lga oldi.

– Shekspirning tanlangan asarlari hozir kamyob. Dostoyevskiy yoki Drayzerni istalgan miqdorda topish mumkin. Lekin Shekspir hech kimda yo'q. Yuqorida buni o'zingiz ham ta'kidladingiz. Men uchun uni topishning o'zi bo'lmadi. Rosa qiynaldim. Bormagan joyim qolmadi. Kim shaxsiy kutubxonasi borligini aytsa, oyog'imni qo'lga olib oldiga yugurdim yoki tinimsiz qo'ng'iroq qildim. Urinishim oxiri samara berdi. Lekin bularning sohibasi aksiga olib pulga muhtoj bo'lmagan, o'ziga to'q, badavlat xonim ekan. Avvaliga kitoblarni sotishni istamadi. "Ular onamdan yodgorlik, pulga ehtiyojim yo'q", dedi

keskin ravishda. Oldiga bir necha marta qatnadim. Bari foydasiz bo'ldi. Harakatlaring zoye ketdi. Ikki oyog'ini bir etikka tiqib turaverdi, ayol tushmagur. Meni oldiga solib, haydab yuborgan kunlari ham bo'ldi. Nihoyat, narxni oshirgandim, ko'ndi vallomat. Shu tarzda yuqori narxga olishga majbur bo'ldim. Ochig'i, sizga aytgan narximdan menga hech qancha qolmaydi. Besh foiz ulush qolsa katta gap. To'g'ri tushunasiz meni, degan umiddaman. Qolaversa, o'sha xonimning oldiga uch-to'rt marta taksida bordim. Tobim bo'lmagan kunlari taksida yuraman. Oyog'imda bodim bor. Taksi harajati chakana emas. O'zingiz bilasiz. Avtobusda yurishdan ikki barobar qimmatga tushadi.

Xaridor tushundim degandek unga qo'llari bilan ishora berdi. So'ng kostyumi cho'ntagidan charm hamyonini chiqarib, uning ichidan uch dona yuz ming so'mlik kupyurani oldi-da, dangal stol ustiga qo'ydi.

– Mana kelishilgan pullar, -dedi ularni bukinist tomonga surib.

Pullarni ko'rgach, bukinistning ko'zlarida mitti uchqun paydo bo'lib, bir necha lahza beto'xtov yaltilladi. Odatiga ters ravishda o'zini zo'raki bosib, asta ularni qo'lga oldi-da, xursand holda ikki buklad va urinib ketgan kostyumining ichki cho'ntagiga avaylab solib qo'ydi.

– Men kabi bir injiq doktorning hojatini chiqardingiz, - dedi uni baqrayib kuzatib turgan xaridor tabassum qilib. - Endi malol kelmasa Servantesning besh jidlik asarlari to'plamini ham topib bersangiz yaxshi bo'lardi. Mendagisining muqovalari yaxshi holatda emas, ko'nglim to'lmayapti. Ba'zilar yelimidan ajralib ketgan, hatto. Kitob javonimga yarashmayapti ular. Kecha xotinim ham ta'kidladi buni.

– Telefon raqamingiz bor menda, - dedi bukinist o'zini xotirjam va bir paytning o'zida yangi o'lja ketidan quvishga shay holatda turgan ovchidek mardona tutib. - Lekin, oldindan aytib qo'yay. Uning asarlari ham kamyob. Xuddi Shekspirniki kabi.

– Bu tomonidan xavotir olmang, - dedi xaridor uni ruhlantirgan kishi bo'lib. - Boshqa siz bilan savdolashmaslikka so'z beraman. Ularini siz belgilagan narxga olaman.

Bukinist u bilan yana bir finjondan choy ichishni iltifotli tarzda qabul qilmay, o'zidan qoniqish hosil qilgancha o'rnidan turdi. Ko'chada u bilan qizg'in xayrlashgach, otasi buyurgan ishni do'ndirib bajargan bolakaydek o'zini tetik va bardam his qildi. Istirohat bog'i chetidagi kinoteatr yonida joylashgan do'koni tomon viqor bilan qadam tashladi. Ko'chada yomg'ir maydalab yog'ishni boshlagandi. U qo'llari bilan o'zini yomg'irdan pana qilib, trotuar bo'ylab shoshgancha ketarkan, kutilmaganda istirohat bog'idagi eski o'rindiqlardan birida-yog'ayotgan yomg'irga parvo qilmay, pakana kuchugi bilan qo'lidagi shirin kulchani bo'lishib iste'mol qilib, mamnun holda qo'shiq xirgoyi qilib o'tirgan kekxa kampirga ko'zi tushdi. O'rindiq yonidan o'tayotib, uni darrov tanidi.

– Akbarich,- dedi kampir ham uni tanib birdan qo'l silkigancha.- Sizdan minnatdorman, azizim! Tunov kuni mendan Shekspirning sakkiz jidligini sakson ming so'mga sotib olib, hojatimni chiqardingiz. Qiyin paytda menga asqotdingiz. Xudo hofizingiz bo'lsin! Endi nafaqam chiqquncha itim ikkimiz och qolmaymiz.

Bukinist unga qo'llari bilan baqirmaslikni iltimos qildi-da, atrofga alanglab-alanglab, yengil odimlab qarshisiga keldi. Egasining qo'lidan yerga tushgan non ushoqlarini terib yeb, quvnoq bir alfozda dumini likillatayotgan kuchukka e'tibor bermay, kampirga ovozi ingichka qilib pichirladi.

– Mabodo shaxsiy kutubxonangizda Servantesning besh jidlik asarlari to'plami yo'qmi?

Sherzod ORTIQOV.

2020 yil, iyul. Farg'ona. Hekayalar